

## SHAMSIRO'Y HASANOVA: IJODIY YUKSALISH YO'LIDA

**Homidova Shaxnoza Ravshan Qizi<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

San'atshunoslik va Muzeyshunoslik fakulteti,

San'at jurnalistikasi yo'nalishi 2-bosqich talabasi

### MAQOLA MALUMOTI

### ANNOTATSIYA:

#### MAQOLA TARIXI:

Received: 17.01.2025

Revised: 18.01.2025

Accepted: 19.01.2025

Ilk o'zbek ayol rassomi Shamsiro'y Hasanova san'at olamida o'zining noyob uslubi va ijodi bilan muvaffaqiyatlarga erishgan hamda doimiy ravishda o'z mahoratini oshirish, yangi g'oyalarni amalga oshirishga intilgan.

#### KALIT SO'ZLAR:

Shamsiro'y  
Hasanova, portret,  
Chingiz Ahmarov,  
janrlar, tabiat.

#### KIRISH.

O'zbek ayollaridan yetishib chiqqan birinchi musavvira, o'z asarlarida inson ruhiyatini, tabiatning go'zalligini va ijtimoiy masalalarni tasvirlashga intilgan Shamsiro'y Hasanova 1917-yilda Toshkent shahrida tavallud topgan, "U ilk ijodini har qanday bo'lajak rassom singari o'zi tug'ilib o'sgan makon-ko'chalar, uylar, bog'lar, xiyobonlar, bozorlar, turli kasbdagi odamlar, gullar, yil fasllari, tanish va notanish zamondoshlarini tasvirlashdan boshlagan, Yosh musavvira odatda ketma-ket, bir yo'lda bir necha portret, kompazitsiya, natyurmort ustida ishlar edi.



Shamsiro'y Hasanova asarlarida O'zbekiston quyoshida evrilgan ming bir xil rang tuslari, jilvalari ko'rindi. Hayotdan olgan turli taassurotlarini qog'ozga, matoga ko'chirdi. Uning uchun hayotiy lavhalar ijod manbai edi".

( Nodir Normatov. *Shamsiro'yning qalb tug'yonlari & Shamsiro'y. Telefilm 2012*)

Ilk o'zbek ayol rassomi bo'lib, Toshkent rassomlik texnikumida ta'lif olgan. A.Volkov, P.Gan va boshqalardan tasviri san'at asoslarini o'rgangan. Uning turmush o'rtog'i bo'l mish, monumentalist rassom, Sharq miniatyurasini o'zgacha talqinda san'atga olib kirgan ijodkor Chingiz Ahmarovdir. "U keyinchalik butun ijodi davomida Sharq go'zallari timsoliga murojaat etar ekan, ularga ana shu musavvira qiz-turmush o'rtog'i Shamsiro'y Hasanovani prototip qilib olgan edi. "Men Shamsiro'yning qator portretlarini ishlab ko'rganman. Alisher Navoiy nomidagi teatrغا tasvir etganim obrazlarning barchasida Shamsiro'ydan olganman, desam mubolag'a bo'lmaydi. Biroq, shulardan eng muvaffaqiyatlisi, 1943-1944-yillarda sevib tasvir etganim "Shirin" asarim deb hisoblayman. Bu rasmda Shamsiro'y qiyofasi o'ychan, go'zal obrazi siyosiga mos tushganidan tashqari, Shirinning qandaydir kelgusidagi baxtsizligidan ham darak berib turganday" deb yozgan edi atoqli rassom Chingiz Ahmarov. Bu ikki ijodkor olamni bir-biriga juda-juda yaqin edi. Shamsiro'y Chingiz Ahmarov bilan hamnafas bo'lgan, birga yashagan kezlarida rassomning ruhiy madadiga suyandi. Ijod musavviraning yashash tarziga, hayotiga aylangan edi"

(Nodir Normatov. *Shamsiro'yning qalb tug'yonlari & Shamsiro'y. Telefilm 2012*)



*Telefilm  
2012)*



O'zbekiston davlat san'at muzeyida dastlab ekskursovod, 1945-yildan direktor bo'lib ishlagan. Shamsiro'y Hasanova ijodi davomida Sharq va G'arb san'ati uslublarining uyg'unligiga, O'rta Osiyo miniyatURA maktablari va mahobatli rassomligi an'analarini Yevropa realistik san'ati an'analari bilan uyg'unlashtirib o'ziga xos yangi plastik yechimga erishgan.


Hasanova portret janrida ko'plab nodir asarlar yaratgan, "Bog'bon qiz", "Skripkachi qiz", "Avtportret", "Qashqar shoirasi", "Mutriba", "Zebiniso", "Nodirabegim" shular jumlasidandir.



"Bu portretda u Nodirani nafaqat taxt malikasi, balki nafosat, oqilalik go'zallik ma'budasi sifatida tarannum eta oldi.

Uvaysiy portreti Nodira portretidan so'ng bir yil o'tib, 1947-yilda ishlandi. Unda biz olimaqom zot ayollariga xos viqor, jiddiy nigoh, musibatlarni iroda kuchi bilan yenggan matonatli bir timsolni ko'ramiz".

Shamsiro'y Hasanova asarlarini kuzatar ekansiz, undagi ranglar uyg'unligi, noodatiy tasvirlar hamda o'zgacha uslub insonni hayratlantirmay qolmaydi.



O'zbekiston yosh rassomlari orasida Shamsiro'y Hasanova ijodi alohida o'rinn tutadi.



Musavvira o'zbek tasviriy san'atida birinchilardan bo'lib, natyurmort janriga asos soldi. Uning "Koptok guli", "Xitoy chinnisi", "Mevalar" kabilalar shular jumlasidandir.

Xulosa qilib aytganda, ijodkor bir so'z bilan shu paytgacha chizilgan asarlarida Sharq miniatyurasini juda ko'p tasvirlagan. Asarlarida yorqin ranglardan foydalanish bilan

birgalikda Shamsiro'y Hasanova Sharq she'riyatining chinakam muhlisi edi. Shamsiro'y Hasanova ijodi davomida ko'plab portretlarni ishlash bilan bir qatorda, asarlaridagi noodatiylik hali hanuzgacha insonlar ko'zini qamashtiradi. Ulardan ilhomlanmasdan bo'lmaydi. Shamsiro'y Hasanovaning yaratgan nodir asarlari ulardag'i jim-jimadorlik, o'zgacha uslub hamda texnikada ishlanganligi taqsinga sazovordir. Ranglarning bir-biri bilan uyg'unlashib ketishi, bir-biri bog'liqligi asarning yanada mohiyatini ochib beradi. Shu kabi kartinalar sohibasi bo'l mish Shamsiro'y Hasanovaning umri juda ham qisqa bo'ldi. 1956-yil kuz oyida og'ir dardga chalinib, vafot etdi. Shu qisqa vaqt oralig'ida ijodkor o'zidan ko'plab bir-biridan go'zal rangtasvir asarlarini meros qilib qoldirdi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Nodir Normatov. Shamsiro'yning qalb tug'yonlari & Shamsiro'y. Telefilm. 2012
2. Kultashev, B., Sadikova, S., & Kultasheva, N. (2021). Development of portrait of Uzbekistan during the early 20th century. *Melbrun. Australia. Swinburne University of Technology*. –2021.
3. Алимкулова Д. 1920–1930-йиллар рангтасвири Ўзбекистон тасвирий санъатининг ривожланиш жараёни кесимида// Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – 2020.
4. Khayitboboeva K. P. A Study Of The Problems Of Tradition And Innovation In Modern Uzbek Folk Art //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 11. – С. 14-20.
5. Askarova, Z., Rakhmatullaeva, A., Khaitbabaeva, K., & Kabilova, F. (2023). ARTISTIC EXPRESSION OF THE IMAGE OF WOMEN IN ANCIENT AND MEDIEVAL ART IN CENTRAL ASIA. SPAST Abstracts, 2(02).
6. Nasrullayvna K. F. TRANSFORMATION IN SCENOGRAPHY OF PUPPET THEATER //European Journal of Arts. – 2023. – №. 2. – С. 34-37.
7. Xayitboboyeva X. P., Jo'Rayeva M. Z. TOSHKENT YOG 'OCH O 'YMAKORLIGIDA IBRAGIMOVLAR SULOLASINING O 'RNI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 2. – С. 862-868.